

MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDA JAHON AMALIYOTI TAJRIBASI: ZAMONAVIY TA'LIM DASTURLARI VA TEXNOLOGIYALAR

Nazarova Dilnoza Eraliyevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Tarix kafedrasida dotsenti, tarix fanlari falsafa fanlari doktori (PhD)

Pardayev Suhrob Isroil o'g'li

O'MPU. "Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi"

(huquq ta'limi) yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada xorijiy davlatlarning maktabgacha ta'lim tizimi ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan. Maktabgacha ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va yo'nalishlari ko'rsatilgan. O'rganilgan davlatlarda maktabgacha ta'lim tizimining asosiy muammolari aniqlangan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy turlari va dasturlari tavsifi keltirilgan.

Kalit so'zlar: xorijda maktabgacha ta'lim, tarbiya, o'qish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, yasli, yasli-maktabgacha ta'lim tashkiloti.

Аннотация. В статье рассмотрены и проанализированы системы дошкольного образования зарубежных стран. Выделены особенности и направления дошкольного образования. Определены основные проблемы систем дошкольного образования в изученных странах. Дана характеристика основных типов и программ дошкольных учреждений.

Ключевые слова: дошкольное образование за рубежом, воспитание, учеба, детские сады, ясли, ясли-сады.

The article describes and analyzes the system of preschool education in foreign countries. The features and direction of pre-school education. The main problems of pre-school education systems in the countries studied. The characteristics of the main types of preschool institutions and programs.

Keywords: pre-school education abroad, training, education, kindergartens, nurseries, nursery-gardens.

Dunyoning ko'pgina davlatlarida maktabgacha ta'lim yagona ta'lim-tarbiya tizimining dastlabki bo'g'ini hisoblanadi. Mazkur tizimga mahalliy hokimiyat organlari, sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari, diniy va jamoat tashkilotlari, jismoniy shaxslar tomonidan e'tibor ko'rsatiladi. Odatda, ko'pgina davlatlarda statsionar va mavsumiy yasli, ish vaqti davomiyligi turlicha bo'lgan MTT, boshlang'ich sinflarda maktabgacha bo'limlar, onalar maktablari, maydonchalar faoliyat yuritadi. Tarbiyaviy ishlarning maqsadi bolalarning barkamol rivojlanishi, ularda ijtimoiy hayot malakalarini shakllantirish hisoblanib, bu ishlar ta'lim va tarbiya dasturlari asosida amalga oshiriladi. Barcha davlatlarda pedagogik xodimlarni tayyorlash tizimi mavjud (kurslar, o'rta maxsus, oliy ta'lim muassasalari). Maktabgacha ta'limning har bir milliy tizimi o'ziga xosliklarga va o'z ilg'or tajribalariga egadir.

Shu jihatdan xorijiy davlatlarda maktabgacha ta'lim tizimi tajribalari o'rganildi va tahlil qilindi.

Daniyadagi eng keng tarqalgan ommaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlari kunduzgi yaslilar, MTTlar, yasli-MTTlar, o'yin maydonlari va ruhiy, jismoniy rivojlanishida alohida ehtiyojli bolalarning tarbiyalanishi hamda davolanishi, ularga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatilishi, nuqsonlarni korreksiyalash uchun mo'ljallangan sutkalik maktabgacha ta'lim muassasalar hisoblanadi. Pedagogik xodimlar psixologiya, fiziologiya, pedagogika yo'nalishidagi uch yillik tayyorgarlikdan o'tadilar. Daniyaning bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarining har besh nafardan bir ishchisi erkak kishi hisoblanadi. Daniyada Xalqaro Montessori-assotsiatsiyasi markazi joylashgan.

Isroilda MTTlar shahar, diniy va ayollar tashkilotlari ta'minoti ostida hamda avgust oyidagi qisqa muddatli ta'tildan tashqari, yil davomida faoliyat yuritadilar. Mazkur davlatda 5-10 nafar go'dak (3 oylikdan boshlab) va maktabgacha yoshdagi bolalar uchun pullik xususiy MTTlar mavjud. Xususiy MTTlar ochishga faqatgina pedagogik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislariga ruxsat etiladi.

Mintaqaviy singari xususiy bolalar MTTlari xalq ta'limi vazirligi tomonidan nazorat etiladi. Barcha bolalar maktabga bepul tayyorlaydigan MTTning katta guruhlariga tashrif buyurishlari lozim. Ular badiiy faoliyatning turli ko'rinishlarini egallaydilar, hikoya va ertaklar tinglaydilar, o'qish va hisoblashga o'rganadilar, kompyuterda ishlaydilar, xalq an'analari bilan tanishadilar [1, 17–19].

Germaniyada jamoat maktabgacha tarbiya an'analari eng qadimiylardan biri hisoblanadi. 1957 yildan boshlab MTTlardagi tarbiyaning ixtiyoriyligi to'g'risidagi qonun amal qiladi, ularning 20 foizini davlat ta'minlaydi, 80 foizi cherkovlarga, kasaba uyushmalari, nemis Qizil yarim oy jamiyati, yoshlar xizmati va boshqa hayriya tashkilotlariga tegishli. Ota-onalar bolalar ta'minotining 50 foizini to'laydilar, boshqa harajatlarni maktabgacha ta'lim muassasasining egasi qoplaydi.

Germaniyada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining quyidagi turlari mavjud: 3-6 yoshli bolalarga mo'ljallangan to'liq kunlik va yarim kunlik MTTlar; bir guruhli maktabgacha muassasalar (ko'proq katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun); maktablar qoshidagi guruhlar (besh yoshdagi bolalar uchun); besh yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi umumta'lim maktablarining tayyorlov sinflari; 3-6 yoshdagi sog'lom bolalar uchun sutkalik internatlar; salomatligi va rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar uchun internatlar; onalar markazlari. Unda onalar o'z farzandlari bilan birgalikda qiziqarli va foydali faoliyat bilan shug'ullanadilar, bir-birlari va pedagogika va psixologiya sohasidagi mutaxassislar bilan muloqot qiladilar [3, c. 9–12].

Bolalar tarbiyasining asosiy konseptual tamoyillari ochiq va bepul MTTlarda amalga oshiriladi.

Bepul MTTlarning keng tarqalgan turi – shteyner MTTlari va Montessori MTTlari hisoblanadi. Ochiq MTTlar maktabgacha ta'limning vaziyatga yo'naltirilgan konsepsiyasi asosida tashkil etilgan, unga quyidagilar xos: bolalar ishtirokida ochiq rejalashtirish; haqiqiy hayotiy aloqalar asosidagi ta'lim; o'yin va ta'limning yaxlitligi; hayot va faoliyatning yosh davrlariga mos ravishda tashkil etilishi; jamoatchilik bilan aloqalar; ota-onalar va maktabgacha ta'lim muassasasining hamkorligi. Tarbiyachi tizimli va davomli

kuzatuv, pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilish, prognozlash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Polshada maktabgacha tarbiya tizimini MTTlar, to‘liq kunlik (shaharda) va yarim kunlik (qishloq joylarda) yasli-MTTlar tashkil etadi. Shuningdek, ikki haftalik sutkalik yasli-MTTlar hamda ko‘p qavatli uylarda joylashgan, oilaviy tipdagi vaqtinchalik kichik MTTlar faoliyat ko‘rsatadi.

Finlyandiyadagi MTTlar XIX asrning 50-yillaridan buyon mavjuddir. Muayyan vaqt ular frebelevsk tizimi asosida ishlaganlar. Maktabgacha muassasalarning oqilona ish modelini izlashda Amerika, Shvesiya maktabgacha tarbiya tizimi va Montessori tizimi sinovdan o‘tkazilgan. Finlyandiyada maktabgacha muassasalarning quyidagi turlari mavjud:

– xalq MTTlari. Ular uzoq yillar avval yaratilgan va ota-onalari ish bilan band oilalar farzandlarining tarbiyasida ko‘maklashish maqsadida tashkil etilgan. Oilada bolalarni kunduzgi vaqtlarda parvarishlash uchun ochiq MTTlar, ko‘chma MTTlar (mavsumiy singari), jismoniy va ruhiy rivojlanishida alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar uchun maktabgacha ta’lim muassasalar keng tarqalgan.

– oilaviy MTTlar, ularning vazifasi bolalarning oilaviy parvarishini ta’minlashdan iborat. Tarbiyachilar maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lishlari lozim;

– ochiq MTTlar, ular o‘yin maydonchalari tipida ishlaydilar, u yerga ota-onalar farzandlarini sayr qildirish, tengdoshlari bilan birgalikda o‘ynashlari uchun olib keladilar;

– maktabgacha muassasalar, ularning ishi katta oila tamoyili asosida tashkil etiladi.

Finlyandiyada davlat maktabgacha tarbiya tizimi oila bilan yaqin aloqada amalga oshiriladi. 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarning har 3 nafardan biri va maktabgacha yoshdagi bolalarning (maktabdan 1 yil avval) deyarli barchasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanadilar. Ota-onalar maktabgacha muassasa ishida bevosita ishtirok etish bo‘yicha keng imkoniyatlarga egalar. Guruhlardagi bolalar soni qat’iy cheklangan: 1 yoshgacha davrdagilar – 6 nafardan ortiq bo‘lmagan. 1 yoshdan 2 yoshgacha qadar – 12 nafardan ko‘p bo‘lmagan, 3 yoshdan so‘ng – 20 nafardan ortiq bo‘lmagan tarbiyalanuvchilar.

Pedagogik xodimlarning ish tartibi kunduzi bolalar bilan barcha tarbiyachilar va enagalar ishlashi asosida tashkil qilingan. Harbiy ruhdagi o'yinchoqlar sotilishi ta'qiqlangan. Tarbiyaviy ishlarda bayramlarning o'tkazilishiga katta ahamiyat beriladi: BMT kuni, Finlyandiyaning mustaqillik kuni, Otalar kuni, Onalar kuni, Rojdestvo, fin tili, «Kalevali» kuni (karelsk – fin milliy eposi). Tarbiyachilik faoliyatiga maxsus oliy ma'lumotli shaxslarga ruxsat etiladi.

Shveysariyaning maktabgacha ta'lim tashkilotlari (yoki bolalar maktablari) 4-6 yoshli bolalarning tarbiyasi uchun mo'ljallangan. Davlat MTTlaridan tashqari ko'pgina xususiy MTTlar mavjud, ular haftada besh kun davomida kuniga bir necha soat ishlaydilar va ko'proq bir qavatli hamda sayr qilish va jismoniy tarbiya uchun maydonchalari bo'lgan binolarda joylashadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining tarixan ikki konsepsiyasi yuzaga kelgan: mamlakatning nemislar joylashgan hududidagi konsepsiya F.Frebel g'oyalariga, roman qismida – jeneva yo'nalishiga (E.Klapared, A.Ferer, Je.Piaje) hamda «Montessori» tipiga asoslangan. Shvesiya maktabgacha ta'lim tashkilotlari yaxshi jihozlangan, ularda mashg'ulotlar va mustaqil shug'ullanish uchun didaktik, o'yinli materiallar juda ko'p. Doimiy ravishda maktabgacha ta'lim muassasasi va boshlang'ich maktabning o'zaro hamkorligi yo'llari izlanadi, bolalarni maktabga tayyorlash uchun «MTT-maktab» majmualari tashkil etiladi [4, c. 87].

Yaponiyaning tarbiya tizimi layoqatlarni barvaqt aniqlash va qobiliyatlarni tabiiy rivojlantirishga yo'naltirilgan. MTTlardagi guruhlarda bolalar soni ko'pchilikni tashkil etadi – guruhda o'rtacha 40 nafardan. Tarbiya muhiti ehtiyotkorona, did bilan tashkil etilgan. Bolalar xonada qulaylik va go'zallik yaratishda ishtirok etadilar: ular gullarni o'stiradilar, loyihalashtiradilar, panno va gobelenlar tayyorlaydilar va shu kabilar. Bolalarning tasviriy faoliyatda ishtirok etishlari majburiy hisoblanadi, chunki yaponlarning fikrlariga ko'ra, qo'l bilan yaralgan go'zallik insonni borliqni idrok etishidagi go'zallikni falsafiy tushunishiga sabab bo'ladi. Pedagoglarning vazifasi bolalarni muloqot qilish, g'amxo'rlik ko'rsatishga o'rgatish, har bir bola qulaylik, teng huquqlilikni his qilishi, guruh esa do'stlik va hamkorlik asosida rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Pedagog bolalarga tanbeh bermaydi. Tarbiyaning asosi yapon

xalqining milliy qadriyatlari hisoblanadi, bu hatto individual ovqatlanishni tashkil etish bilan ham bog‘liq. Ta’kidlanishicha, insonning taqdiri uning iqtidoridan ko‘ra, uning sabri, ishlash qobiliyati, qat’iyatliligi, tirishqoqligiga bog‘liq. Shu tufayli hayot tartibi va faoliyatga amal qilishga muhim ahamiyat beriladi (barvaqt uyg‘onish, tartib-intizomli bo‘lish, ko‘p ishlash, to‘g‘ri ovqatlanish, xushmuomalalik, salomlashish, tashakkur izhor etish shakllarini qo‘llash). Kattalarga hurmat, boshqa insonni tushunish, umumiy qoidalarga bo‘ysunish, bag‘rikenglik ma’qullanadi. Bolalarga «o‘lim» tushunchasining mohiyati ochib beriladi, tinchliksevarlik o‘rgatiladi.

Bolalar tarbiyasi jarayoni tarbiyachilar va ota-onalarning yaqin hamkorligi asosida quriladi. Ota-onalarning sport kunlari, kuzatuv kunlari farzandlaridan xabar olishlari, pedagoglar va ota-onalarning bolaning rivojlanishi to‘g‘risidagi qiziqarli fikrlarini birgalikdagi yozib borishlari, ota-onalar majlislari an’anaviy hisoblanadi. Ko‘pgina maktabgacha ta’lim muassasalari o‘z ishlarida, iqtidor bolaning qobiliyatlari rivojlanishining maksimal darajasi, 6 yoshlik davr esa – uning taqdiri hal etiladigan davr deb hisoblagan, mashhur yapon skripkachisi va pedagogi Sudzukining tajribasiga tayanadilar (“Iqtidorni tarbiyalash tizimi”). Nutq va musiqiy qobiliyatlarning barvaqt rivojlanishi asta-sekin shaxsning yaxlit rivojlanishi tizimiga aylanib boradi, musiqa va ona tili esa – uning asosiy vositalari hisoblanadi. Sudzuki MTTlarining mashhurligidan ota-onalarning farzandlari dunyoga kelishidan 3-4 yil avval bolani qabul qilish to‘g‘risidagi arizani berishlari guvohlik berishi mumkin. Bu muassasalarga bolaning hech qanday layoqatlari tekshirilmasdan qabul qiladilar. Tarbiyachilar yosh davrlari turlicha (3,5 yoshdan 5 yoshgacha) bo‘lgan bolalar guruhlari (60 nafargacha bolalar) bilan ishlaydilar. Ularning rollari bola shaxsining mustaqil rivojlanishi uchun muhit yaratishdan iborat.

Bunda xotira, idrok (ko‘rish, eshitish, taktil), bolalarning tasviriy faoliyatlarining majmuaviy turlarini rivojlantirish nazarda tutiladi. Bolaga ikki yoshidan boshlab skripka chalish o‘rgatiladi, buning uchun «Sudzuki» kompaniyasi to‘liq o‘lchamining 1/32 qismiga teng bo‘lgan kichik skripkalarni ishlab chiqaradi. Mazkur MTTlarda tarbiya jarayoni insonparvarlik mazmuniga (tabiat, san’atning go‘zalligi) va shakliga ega (bolani

hech narsaga majburlamaydilar, balki uning uchun rivojlantiruvchi pedagogik muhitni yaratadilar) [2].

Bolalar iqtidorlarini rivojlantirish muammolariga nafaqat pedagoglar va ota-onalar qiziqadilar. Maktabgacha muassasalar tizimining faoliyatiga Barvaqt rivojlanish Assotsiatsiyasi, “Iqtidorlilar ta’limi” tashkiloti ham sezirlarli darajada o‘z ta’sirini o‘tkazadi. «Soni» firmasining asoschisi Masari Ibukining bolalar qobiliyatlarini tarbiyalash to‘g‘risidagi mashhur asarlarida keltiriladigan, bola miyasining tuzilishi faol rivojlanadigan ilk uch yoshlik davrida uning idrok etish shaxsiy tajribasi aqliy qobiliyatlari rivojlanishining asosi hisoblanishi, hech bir bola daho yoki qoloq bo‘lib tug‘ilmasligi, har bir bola yaxshi o‘qishi mumkinligi – barchasi insonparvar, bolaning imkoniyatlari, moyilliklari va qiziqishlarini inobatga oladigan ta’lim metodiga bog‘liqligi to‘g‘risidagi muallifning fikrlari yapon maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini aniq va yaqqol ifodalaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim va tarbiyasining milliy tizimlari qanchalik o‘ziga xos va original bo‘lmasin, ularning barchasi o‘z asosida universal tamoyillarga ega bo‘lgan, maktabgacha ta’lim va tarbiya yagona va yaxlit tizimini taraqqiyotning umumiy hodisasi sifatida namoyon etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Буре Р.С., Островская Л.Ф. Воспитатель и дети. М., 2003.
2. Детский сад в Японии: Опыт развития детей в группе. М., 2012.
3. Kiese-Himmel, Christiane; von Steinbuechel, Nicole; Gibbons, Henning. [Assessment of Social-Communicative Behaviour Problems and Expression of Emotions in Three-to Six-Year Old Children in Nursery School and Kindergarten // PRAXIS DER KINDERPSYCHOLOGIE UND KINDERPSYCHIATRIE. – GERMANY. – 2016. Том: 65. Выпуск: 3. Стр.: 181-199. <http://webofscience.com>.](#)
4. Парамонова Л.А., Протасова Е.Ю. Дошкольное и начальное образование за рубежом: история и современность. М., 2001.

5. Secer, Zarife; Ogelman, Hulya Gulay; Onder, Alev. [Analysing the peer relationships of obese and normal-weight preschool children aged between five and six years// EUROPEAN EARLY CHILDHOOD EDUCATION RESEARCH JOURNAL. – ENGLAND. – OCT 20 2015. Том: 23. Выпуск: 5. Стр.: 589-603. <http://webofscience.com>](#)
6. Современные образовательные программы для дошкольных учреждений / под ред. Т.И. Ерофеевой. М., 2000.
7. Сорокова М.Г. Современное дошкольное образование: США, Германия, Япония. М., 1998.